

ALEKSANDR FAYNBERG SHE'RIYATI VA UNING BADIY TAHLILI

Yuldosheva Elmira Akmal qizi

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti xorijiy til va adabiyoti ingliz tili 3- fakultet talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqola Faynberg she'riyati, uning she'rlari va ular haqidagi badiiy tahlillarni o'z ichiga oladi, bu haqda o'z qarashlarini namoyon etadi.*

Kalit so'zlar: *she'riyat, badiiy tahlil, she'riy to'plam, nuqtayi nazar, ichki olam, o'xshatish, sifatlash, ritm, hissiyot.*

She'riyat - badiiy adabiyotning bir turi hisoblanib, unda til va obrazlar orqali his-tuyg'ular, hissiy kechinmalar, fikrlar, tasvirlar va tavsiflar ifodalanadi. Bundan tashqari, u so'zlarning sehrli taqdir, ular yurakdan yurakka, fikrdan fikrga o'tadi. Har bir qator, har bir misra bir-biriga mustahkam bog'langan dur, shoda va marjonlar singari kishi ruhining chuqur qatlamlariga kirib olib, unda qandaydir bir yorug'likni uyg'otadi. She'riyatda so'zlar nafaqat ma'no, hissiyotlarni, balki teran tasavvur hamda o'chmas xotiralarni ham o'zida mujassamlashtirgan. Tasavvur qiling, bir oqshomda behisob yulduzlar keng osmonni bezab turibdi, va siz buni she'r orqali ifoda etmoqda siz. Agar his etgan bo'lsangiz, sizning so'zlaringiz yulduzlar kabi porlab chiqadi, ularning har biri tuyg'u yoki fikrni ifodalab, ichki olamingizda jo'shqinlikni, ijobiylikni paydo qiladi. She'riyatda har bitta so'z - bu rang, har bitta misra - bu rasm, va har bitta she'r esa - bu, albatta, butun bir asar. Qolaversa, u inson ruhiyatini chuqur anglashga yordam beradi va ko'plab madaniyatlarda muhim rol o'ynaydi. O'zbek nazmida alohida o'rin tutgan buyuk shoirlarimiz, jumladan Alisher Navoiy, Abdulla Oripov, Erkin singari ijodkorlarimizning yaratgan asarlari xalqimizning madaniy merosini boyitdi. Xuddi shu kabi, Aleksandr Faynbergning ijodiyoti ham alohida o'rin egallab, e'tibor qaratishga undaydi. Quyida shoir she'rlaridan namunalar va ularning ma'no nozikliklari va mazmun-mohiyati bilan tanishtirib o'tiladi.

Unutma. Bir marta chalinar navo,
Bitsa ham xotirdan o'chmas jarohat.
Unutma. Yurakni tilkalar jafo,
Faqatgina bir bor kelar muhabbat.

Sevgi va muhabbat. Bu so'zlarni eshitgan zahoti kishi xotirasida saqlanib qolgan unutilmas lahzalar, damlar, sarguzashtga boy bo'lgan onlar ko'z o'ngida paydo bo'ladi. Yurakning allaqayeridir alanga olib, olov kabi lovullab, uchqun sachratadi. Bu ikki ilohiy tuyg'u har bir kishini hayoti davomida bir martaga bo'lsa ham o'ziga tobe qilib, qalb kechinmalarini shu ikki unsurga bog'lashga undaydi. Shuning uchun sevimli shoirimiz ham she'rda ilk e'tiborni to'g'ridan - to'g'ri muhabbatga qaratgan. Bu, shubhasiz, tabiiy hol, chunki ijodkor inson hayotida ilohiy ishq va muhabbat bilan umrguzaronlik qiladi. Bu ikki hissiyotlarni anglash orqali o'quvchiga o'zgacha zavq ulashadigan nodir asarlar

yaratadi. U uchun umrni muhabbatsiz kechirmoq imkonsiz, go'yoki. Ammo bu hisni hamma ham to'laligicha tuyolmaydi. Shoir yuqoridagi misralar orqali shu ma'noni ko'zda tutmoqda. Zero, Olloh tomonidan solih bandalariga chin muhabbat tuyg'usi asli bir marta beriladi. Shu qisqa muddat davomida ikki qalb birga bo'lib, jaf va azoblar o'rniga, mehr, iliqlik va vafo bilan bir- birlarini siylashi kerak. Darhaqiqat, aytilgan achchiq va kinoya so'zlar xotirada muhrlanib, saqlanib qoladi. Umuman olganda, ijodkor bu misralarda inson hissiy kechinmalarining murakkabligini va muhabbatning qanchalik nozik va qimmatbaho ekanligini ta'kidlaydi

Yolg'on va'dalardan ne foyda bor-a?!

Bu o'yindan chiqib ketganman azal.

Qalbaki nag'mani tinglashdan ko'ra,

Odamga jimjitlik, sukunat afzal.

Lirik shoir yuqoridagi to'rtlik orqali oshiqning suyuqli mahubbasiga ishqni yolg'on va'dalar, quruq gap yoki soxta so'zlar bilan qurib bo'lmaslikni, bundan hech qanday foyda yo'qligini izohlaydi. Bu yolg'onlar asosiga qurilgan o'yindan allaqachon bosh olib ketganini aytadi. Uning o'rniga haqiqiy his- tuyg'ularni afzal ko'rishni istaydi. Hattoki, bu qalbaki nag'malarni tinglash uni shunchalik charchatganki, ba'zan shovqin- suronlardan kechib, ichki tinchlikka erishishni, yolg'izlik va sukunatni foydali deb biladi. Shubhasiz, jimjitlik qahramon uchun ruhiy holatni yaxshilash, haqiqiy o'zini topish uchun zarurdek. Umuman, yolg'on va'dalar, ichki tinchlik va haqiqiy his- tuyg'ular o'rtasidagi kurash bu to'rtlikda aniq aks ettirilgan.

O'tinaman, dangal bo'lmagin so'zga,

Ishonib boy berib qo'yma boringni.

Uchmagin aldoqchi, bevafo ko'zga,

Asrab - avaylagin yurak toringni.

Ushbu misralar orqali oshiq yana yoriga murojaat qilib, va'da berib gapirayotganda so'zga ehtiyot bo'lishlikni, ya'ni va'daga ehtiyotkorlik bilan yondashishni yoqlaydi. Aks holda, soxta so'zlarga ishonib, o'z hayoti yoxud qadr-qimmatini yo'qotib qo'yishi haqida ogohlantiradi. Oxiridagi ikki parchaga e'tibor qaratadigan bo'lsak, yolg'onchi va ishonchsiz kimsalardan saqlanish zarurligi, yurakni, ya'ni his-tuyg'ularni, sevgi va umidlarni asrab-avaylashga asosiy urg'u qaratiladi.

Sabr qil, tebrangay yurakdagi tor,

Ilohiy go'zallik navosi bo'lib.

Bir yurak jo'r bo'lar unga beg'ubor,

Haqiqiy muhabbat sadosi bo'lib.

She'ning oxirgi nuqtalarida insondagi chidamlilik, bardoshlilik va ichki kechinmalar haqidagi fikrlar qalamga olinadi. Sabr qilishlik oxirida yurakdagi go'zal torlarni to'qib chiqaradi, lekin bu ba'zan og'riq va azoblarni keltirishi mumkin bo'lgan bir holatni anglatadi. Qo'shimcha qiladigan bo'lsak, sabr- chidam, muhabbat va ichki go'zallikni kashf etish haqida chuqur ma'no bor. Insonning yuragi va hissiyotlari o'rtasidagi ritmik bog'lanish, sabr bilan kuchayishi mumkinligi ifodalanadi.



Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, iste'dodli shoir quyidagi she'r orqali ishq va muhabbat, undagi kechadigan jarayonlar haqida so'z yuritadi. Muhabbat kishiga doim ham berilmasligi , chin sevgiga yetishishdagi qiyinchiliklar haqida gapirar ekan, bu ilohiy tuyg'u naqadar murakkab va injiq xarakterga ega ekanligi ham e'tibordan chetda qolmaydi. Shu nuqtayi nazardan, ko'plab o'xshatish va sifatlashlar she' r ta'sirchanligini oshirish maqsadida foydalanilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Aleksandr Faynberg. Qoramaga qasida . She'rlar. 45- bet.
2. [https/ uz.m.wikipedia.org](https://uz.m.wikipedia.org)

